Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarining nutqini o'stirishda innovatsion metodikalarni qo'llash tendensiyasi.....	794
<i>Erhanova Nasiba Absayitovna</i>	

Akademik ijro mahoratini rivojlantirishda xavaskor xor rahbarlar uchun zamonaviy pedagogik yondashuvlar	797
Yuldosheva Sadoqat Iloxmonovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning nutq rivojlanishida zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning me'yoriy-huquqiy asoslari	801
Djamolova Noila Zayniddinovna	
Ta'lim va tarbiya jarayonida ulug' mutafakkirlarning odob va axloqqa oid ilmiy merosidan foydalanishning o'ziga xos jihatlari	807
Ergasheva Dilnoza Mamasharifovna	
Tayyorlov guruh bolalarini kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishning innovatsion texnologiyalari	810
G'afforova Hurriyat Yangiboyevna	
Bo'lg'usi o'qituvchilarni media ta'limdan foydalanishga o'rgatish	814
G'aniyeva Sayyora Saidmurod qizi	
Bo'lajak pedagog kadrlarning boshqaruv kompetentligini rivojlantirishning nazariy asoslari	817
Jalolova Feruza Mirkamol qizi	
Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar ijodiy tafakkurini rivojlantirish muammolari va yechimlari	822
Jumayev Xushboq Soatmumin o'g'li	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda kasb motivlari barqarorligiga guruhii jipslikning ta'siri	827
Jumayeva Malika Aliyevna	
Jismoniy tarbiya darslari jarayonida maktab yoshidagi bolalarning jismoniy sifatlarini rivojlantirish	831
Kamardinov Baxtiyor Kamardinovich, Azimqulova Shaxlo Baxtiyor qizi	
Maktab va oila hamkorligida boshlang'ich ta'lim o'quvchilarini she'r yodlash qobiliyatini shakllantirish	837
Karimova Shoxsanam Islomovna	
Turkistondagi jadidchilik harakatining o'ziga xosligi va maktablardagi ta'lim tizimi	840
Karimova Zarrina	
Umumiy o'rta ta'lim maktablari boshqaruvida ijobiy ijtimoiy munosabatlar muhitini shakllantirishdagi tashqi ta'sirlar	843
Maryam Raximova	
Tarbiya ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida: an'anaviy qadriyatlar va zamonaviy pedagogik yondashuvlar uyg'unligi	848
Muhammadiyeva Feruza To'raikulovna	
From Access to Success: Advancing Inclusive Education in Universities	852
Nutfiyeva Dildora	
Bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachilarini kasbiy tayyorgarligining pedagogik mexanizmlari	856
O'tasheva Lola Shoto'rayevna	
Kognitiv yondashuv asosida ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarida ingliz tilini tushunish ko'nikmalarini rivojlantirish samaradorligini o'rganish	859
Qudratova Sultonposhsha Otabek qizi	
Klinik amaliyotda tibbiyot talabalarining stressni boshqarish ko'nikmalarini shakllantirishning innovatsion metodlari	864
Sobirov Qobuljon G'ofirjon o'g'li	
Ingliz tilini ikkinchi xorijiy til sifatida o'qitishda leksik derivatsiyalarning ahamiyati	868
Abdusattarov Mavlon Sherali o'g'li	
Tasavvuf adabiyotining paydo bo'lish omillari	872
Ahmadova Shohsanam Sodiq qizi	
Ichki ishlar akademiyasi kursantlarining favqulodda vaziyatlarda qaror qabul qilish jarayonini takomillashtirishning nazariy metodologik asoslari	875
Kadirova Sayyora Madaminovna	
Maktab fizika kursini o'qitishda ekologik tarbiyani shakllantirishning pedagogik asoslari	878
Karimov Abdurahmonjon Ma'rufjon o'g'li	
Til o'rgatishda zamonaviy usullardan foydalanishning samaradorligi va joriy etish strategiyalari	882
Muxammadjonova Nafisa Rustam qizi	
O'quvchilarning fizika faniga oid umumiy kompetensiyalarini shakllantirishda elektron va mobil ta'lim platformalaridan foydalanishning didaktik imkoniyatlari	885
Najmiddinova Murat Kamolovich	
Sun'iy intellekt asosida talabalarining falsafiy tafakkurini rivojlantirishning metodologik asoslari	890
Nodirbekov Furqatbek Umarjon o'g'li	



Jadidlarning milliy ta'lim paradigmasi asosida OTM talabalarida milliy identlikni (o'zlik) rivojlantirish.....	894
Ortiqboyev Soxibjon Inomjon o'g'li	
Shifokor shaxsini tarbiyalashda empatiya va axloqiy qadriyatlarning o'rni	897
Tajiboyeva Odinaxon Rustamjon qizi	
Features of Flipped Learning to Improve Speaking Proficiency	901
Tojiyeva Matluba Mahmud kizi	
Socio-Cultural Approach to Teaching English to Students of Economic Specialties	904
Xamdamova Nilufar Esanovna	
Pedagogik mahorat	908
Zakirova Difuza Ergashboyevna	
Bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy shaxsiy sifatlarini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari	912
Xabilova Sitara Tursunmurod qizi, Payg'amova Husnida	
Korpus asoslangan til pedagogikasini yuqori kurs ingliz tili ta'limiga joriy etishning nazariy jihatlari.....	915
Toshpulatova Mexriniso Kilichevna	
Bo'lajak muhandislarni kasbiy rivojlantirishni pedagogik muammo sifatida o'rganish	919
Axmedov Juraboy Raxmonberdiyevich	
Talabalarning bilim o'zlashtirish darajasi va faolligini oshirishda differensial yondashuvning ahamiyati	925
Sultonova Farangiz Alisherovna	
Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarning yozuv malakasini oshirish yo'llari	929
Boltayeva Barno Isakulovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarni milliy ruhda tarbiyalash metodikasini rivojlantirish.....	932
Qosimova Aziza Umarali qizi	
Дифференцированный подход как условие для преодоления дислексии у учащихся.....	935
Моминова Тойгул Боходир кизи	
Improving the Methodology of Developing Phonetic Competencies of Primary School Students	939
Zilolaxon Kenjayeva Saminjon kizi	
Bolalar tadbirkorligini rivojlantirishning zaruriyati.....	943
Axmadaliyeva Muxarramoy Olimjon qizi	
Assessing and Monitoring Pedagogical Creativity in Modern Education Processes.....	948
Abdulkhayev Abduvokhid Abdulbori ugli	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida qadriyatli munosabatni shakllantirishning milliy an'ana va pedagogik tajribalar asosida tahlili	951
Achilov Obid Muzrobovich	
Maktabgacha ta'lim sohasida inson resurslarini rejalashtirishning ahamiyati va mehnat bozori tendensiyalari tahlili	956
N. Sh. Miryusupova	
Emotsional intellektning ahamiyati va uning psixologik hamda fiziologik xususiyatlari	960
Bahodirova Shahnoza Rustam qizi	
O'zbek tili darslarida o'quvchilarda PISA topshiriqlarini bajarish ko'nikmalarini shakllantirish	964
Kamshat Baymenova	
Pedagogik texnologiyalar zamonaviy o'quv jarayonining muhim omili sifatida	967
Kazakov Ne'mat Normurodovich	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kreativ kompetentlikni shakllantirishda kasbiy refleksiyaning psixologik-pedagogik asoslari	971
Komiljonova Dilyoraxon	
O'zbek xalq dostonlarini interfaol usullar yordamida o'qitish	973
Nurjanova Yulduz Shukirillayevna	
Umumta'lim maktablarida tabiiy fanlarni o'qitishda fanlararo integratsiyani takomillashtirishning tarkibiy-funksional tuzilmasi	976
Qurbonmurotov Eldor Abdusaidovich	
Kasbiy maslahat – maktab o'quvchilarini kasbga yo'naltirishning samarali vositasi sifatida	980
Raxmatova Sevara Abdulloevna, Gulyamov Djaxangir Raxmatullaevich	
Umumkasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonida interaktiv metodlardan foydalanish imkoniyatlari	986
Saydullayeva Shahlo Sobir qizi	

Pedagogik modellashtirishning o'ziga xos jihatlari va nazariy asoslari.....	990
Sharipov A'zamjon Axmadjonovich	
Talabalarda tolerantlik ko'nikmalarini rivojlantirish omillari	994
Valixanov Ilyos Ilxamovich	
Ta'lim texnologiyalarini mashg'ulotlarda qo'llashning o'ziga xos jihatlari.....	998
Valiyev Sarvar Abdusalimovich	
Ishonch – ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida	1002
Xo'jamova Kamola To'liqin qizi	
Jahon va O'zbekiston tajribasida kasbiy muloqot kompetensiyalarini shakllantirish yondashuvlari	1006
Rajapov Sulaymon Nuraddin o'g'li	
Iqtisodchilarning kasbiy faoliyatida ingliz tilining o'rni va ahamiyati.....	1010
Samandarova Nargiza Muxammadovna	
Praksiologik yondashuv – pedagogik ta'limning metodologik asosi sifatida.....	1015
Rashidova Zulayho Olimjon qizi	
Talabalarga ingliz tilini o'rgatishda "pen pals" loyihasidan foydalanish modeli	1020
Tuymanova Inobat Fozilovna	
Gamifikatsiya asosida ingliz tili darslarini tashkil etish metodlari.....	1024
Ahmadaliyeva Hilolaxon A'zamjon qizi	
O'zbekistonda ingliz tilini o'rganayotgan yosh o'quvchilarda gapirishga bo'lgan xavotir darajasi: rol o'ynash intervensiyasi	1029
Mannapova Maftunaxon	
Ingliz tili darslarida o'quvchilarning grammatik ko'nikmalarini story-based learning usulidan foydalanib shakllantirish metodikasi.....	1033
Xalilova Sevara Kamoliddin qizi	
Integrating the Case Study Method Into Teaching Medical English: an Innovative Pedagogical Research.....	1037
Xoshimova Azizaxon Saxobiddinovna	
Boshlang'ich sinf darslarini 4K modeli asosida tashkil qilishning ahamiyati va samaradorligi	1041
Matqurbonova Sevara Ikromjon qizi	
Критерии эффективности системного подхода в образовании и воспитании детей, находящихся на длительном лечении	1044
Алимова Нигора Исраиловна	
Развитие учебной мотивации через дифференцированный подход в преподавании физики.....	1049
А. Б. Камалов, М. П. Серимбетова	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida media savodxonlikni shakllantirish metodikasi	1053
Astanaqulova Nilufar Dilmurod qizi	
Talabalarda web platformadan foydalanish asosida kompyuterli modellashtirish ko'nikmasini rivojlantirish	1058
Xazratqulov Abduvohid Abdurauf o'g'li	
Bo'lajak oligofrenopedagoglarni kasbiy kompetentligini rivojlantirish	1062
Gulyamova Aziza Anvarovna	
Integrativ yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirish muammosining mavjud holati	1066
Utanbayeva Dildora Abdixadirovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni qoidali o'yinlar orqali jismoniy va ruhiy rivojlantirishning shart-sharoitlari	1070
Umarova Mehriniso Ibragim qizi	

JAHON VA O'ZBEKISTON TAJRIBASIDA KASBIY MULOQOT KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH YONDASHUVLARI

Rajapov Sulaymon Nuraddin o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
tayanch doktranti, katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada jahon va O'zbekiston tajribasida kasbiy muloqot kompetensiyalarini shakllantirish yondashuvlari qiyosiy tahlil qilingan. Tadqiqotda kasbiy muloqot kompetensiyasining mohiyati, tarkibiy qismlari va zamonaviy talablari yoritilgan. Amerika, Yevropa va Osiyo mamlakatlarining ilg'or tajribalari – Harvard universiteti muzokaralar metodikasi, Germaniyaning ikki tomonlama ta'lim tizimi, Yaponiyaning "Ho-Ren-So" konsepsiyasi hamda Xitoyning "guanxi" yondashuvi tahlil etilgan. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlari, "El-yurt umidi" jamg'armasi, "Yoshlar ishlari agentligi" dasturlari hamda IT Park "Soft Skills Academy" tashabbusi ko'rib chiqilgan. Shuningdek, raqamli transformatsiya, virtual muloqot va sun'iy intellekt texnologiyalari kontekstida kasbiy kommunikatsiyaning yangi shakllari tadqiq etilgan. Milliy mentalitet va global standartlarni uyg'unlashtirish, "ustoz-shogird" an'anasi hamda zamonaviy mentoring dasturlarini integratsiyalash yo'llari taklif etilgan. Maqolada O'zbekistonda kasbiy muloqot kompetensiyalarini rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: kasbiy muloqot, kommunikativ kompetensiya, kompetensiyaviy yondashuv, raqamli transformatsiya, madaniyatlararo muloqot, soft skills, virtual kommunikatsiya, milliy mentalitet, global standartlar, ta'lim islohotlari, biznes-kommunikatsiya, networking, sun'iy intellekt, professional rivojlanish.

Abstract: This article presents a comparative analysis of approaches to developing professional communication competencies in global practice and Uzbekistan's experience. The study reveals the essence, structural components, and modern requirements of professional communicative competencies. Advanced experiences from the USA, Europe, and Asian countries are analyzed, including Harvard University's negotiation methodology, Germany's dual education system, Japan's "Ho-Ren-So" concept, and China's "guanxi" approach. Educational reforms in Uzbekistan, programs by the "El-yurt umidi" Foundation, the Youth Affairs Agency, and the IT Park "Soft Skills Academy" initiative are examined. New forms of professional communication are explored in the context of digital transformation, virtual communication, and artificial intelligence technologies. The article proposes ways to harmonize the national mentality with global standards and to integrate the "master-apprentice" tradition with modern mentoring programs. Practical recommendations for improving the system of developing professional communication competencies in Uzbekistan have been presented.

Key words: professional communication, communicative competence, competency-based approach, digital transformation, intercultural communication, soft skills, virtual communication, national mentality, global standards, educational reforms, business communication, networking, artificial intelligence, professional development.

Аннотация: В данной статье проведен сравнительный анализ подходов к формированию компетенций профессиональной коммуникации в мировой практике и опыте Узбекистана. В исследовании раскрыты сущность, структурные компоненты и современные требования к профессиональным коммуникативным компетенциям. Проанализирован передовой опыт США, Европы и азиатских стран – методика переговоров Гарвардского университета, немецкая дуальная система образования, японская концепция "Ho-Ren-So" и китайский подход "guanxi". Рассмотрены образовательные реформы в Узбекистане, программы фонда "El-yurt umidi", Агентства по делам молодежи и инициатива IT Park "Soft Skills Academy". Изучены новые формы профессиональной коммуникации в контексте цифровой трансформации, виртуального общения и технологий искусственного интеллекта. Предложены пути гармонизации национального менталитета и глобальных стандартов, интеграции традиции "наставник-ученик" и современных менторских программ. Разработаны практические рекомендации по совершенствованию системы развития профессиональных коммуникативных компетенций в Узбекистане.

Ключевые слова: профессиональная коммуникация, коммуникативная компетенция, компетентностный подход, цифровая трансформация, межкультурная коммуникация, soft skills, виртуальная коммуникация, национальный менталитет, глобальные стандарты, образовательные реформы, бизнес-коммуникация, networking, искусственный интеллект, профессиональное развитие.



KIRISH

XXI asr globallashuv, raqamli transformatsiya va kasblar integratsiyasi davri sifatida xarakterlanadi. Zamonaviy mehnat bozori mutaxassislardan nafaqat chuqur kasbiy bilimlarni, balki yuqori darajadagi muloqot ko'nikmalarini ham talab qilmoqda. Kasbiy muloqot kompetensiyasi bugungi kunda har qanday soha mutaxassisining muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy omillardan biriga aylandi. Jahon iqtisodiy forumi (World Economic Forum) ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yilga kelib eng talab yuqori bo'lgan o'nta ko'nikmaning beshtasi bevosita muloqot kompetensiyalari bilan bog'liq bo'ladi. Kasbiy muloqot kompetensiyalarini shakllantirish muammosi nafaqat individual kasbiy rivojlanish, balki butun tashkilot va jamiyat taraqqiyoti nuqtai nazaridan ham muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-sonli¹ Qonunida ta'kidlanganidek, zamonaviy ta'lim tizimi kompetensiyaviy yondashuvga asoslanishi, o'quvchi va talabalarning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilishi lozim. Bu kontekstda kasbiy muloqot kompetensiyalarini shakllantirish masalasi alohida dolzarblik kasb etmoqda.

Kasbiy muloqot kompetensiyasi – bu shaxsning kasbiy faoliyat doirasida samarali muloqot o'rnatish, axborot almashinuvi, hamkorlik qilish va muammolarni birgalikda hal etish qobiliyatlarining yig'indisidir. Bu kompetensiya bir necha asosiy komponentlarni o'z ichiga oladi.

Birinchidan, lingvistik kompetensiya kasbiy terminologiya, sohaga oid leksika va kommunikativ konstruksiyalarni bilish va qo'llashni nazarda tutadi.

Ikkinchidan, sotsiomadaniy kompetensiya turli madaniy kontekstlarda muloqot o'rnatish, madaniyatlararo farqlarni tushunish va hurmat qilish qobiliyatini bildiradi.

Uchinchidan, pragmatik kompetensiya muloqot maqsadlariga erishish uchun til vositalarini samarali tanlash va qo'llash mahoratini o'z ichiga oladi.

To'rtinchidan, strategik kompetensiya muloqot jarayonida yuzaga keladigan muammolarni bartaraf etish, tushunmovchiliklarni hal qilish ko'nikmalarini qamrab oladi.

Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi bilan kasbiy muloqot kompetensiyasiga yangi talablar qo'yilmoqda. Virtual muloqot, elektron yozishmalar, video-konferensiyalar, ijtimoiy tarmoqlarda professional mavjudlik – bularning barchasi zamonaviy mutaxassisdan raqamli kommunikativ ko'nikmalarni talab qiladi. Shuningdek, sun'iy intellekt va avtomatlashtirilgan tizimlar bilan o'zaro ta'sir ko'nikmalari ham kasbiy muloqot kompetensiyasining ajralmas qismiga aylanmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Jahon adabiyotida kasbiy muloqot kompetensiyalarini shakllantirishga oid tadqiqotlar kommunikativ kompetensiyalarni markaziy rolga qo'yadi: madaniyatlararo tafovutlarni o'rganish (Hofstede), emosional intellekt va uning biznesdagi roli (Goleman), muzokaralar va kelishuv texnikalari (Fisher va boshq.), hamda mehnat bozorining kelajagi bo'yicha tahlillar (World Economic Forum 2020) asosiy nuqtalarni belgilaydi. Ushbu tadqiqotlar amaliy yo'nalish – loyihaviy ta'lim, simulatsiyalar, real ish muhiti bilan integratsiya (masalan, Germaniya ikki tomonlama ta'lim modeli) orqali kommunikativ ko'nikmalar samaradorligi oshishini ko'rsatadi; shuningdek, raqamli va virtual muloqot vositalari ham yangi kompetensiyalar to'plamini talab qilishini qayd etadi.

O'zbek adabiyotida (milliy va amaliy tadqiqotlar) muhim e'tibor milliy madaniyat xususiyatlarini hisobga olgan holda kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan: ustoz-shogird an'anasi, jamoaviy amaliyotlar va mentorlik tizimlarini zamonaviy metodlar bilan uyg'unlashtirish taklif etiladi. Shu bilan birga, O'zbekistonda olib borilayotgan ta'lim islohotlari va amaliy dasturlar (masalan, IT Park "Soft Skills Academy", "El-yurt umidi" tashabbuslari) kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirishda institutsional qo'llab-quvvatni kuchaytirishga xizmat qilishi ko'rsatilgan. Adabiyotlar qatorida ham nazariy (Hofstede, Goleman, Fisher) va mahalliy tadqiqotlar birgalikda foydalanilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi kasbiy muloqot kompetensiyalarini shakllantirish jarayonini jahon va O'zbekiston tajribasi misolida qiyosiy tahlil qilishga asoslangan. Ma'lumotlar xalqaro tashkilotlar hisobotlari, xorijiy ilmiy adabiyotlar, O'zbekiston Respublikasi qonun va me'yoriy hujjatlari, shuningdek, mahalliy ilmiy tadqiqotlar va amaliy loyihalardan olindi. Jahon tajribasi doirasida Harvard universiteti muzokara metodikasi, Germaniya ikki tomonlama ta'lim tizimi, Yaponiyaning "Ho-Ren-So" konsepsiyasi va Xitoydagi "guanxi" yondashuvi o'rganildi. O'zbekiston kontekstida esa "El-yurt umidi" jamg'armasi, "Yoshlar ishlari agentligi", IT Park tashabbuslari hamda

1 O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-sonli Qonuni: <https://lex.uz/docs/-5013007>

“Raqamli O‘zbekiston - 2030” strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar tahlil qilindi. Olingan ma’lumotlar qiyosiy-analitik usulda qayta ishlanib, umumiylik va farqlar ajratildi hamda milliy mentalitetni global standartlar bilan uyg‘unlashtirish yo‘nalishlari aniqlab berildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Rivojlangan mamlakatlarda kasbiy muloqot kompetensiyalarini shakllantirish bo‘yicha turli yondashuvlar va modellar ishlab chiqilgan hamda muvaffaqiyatli qo‘llanilmoqda. Amerika Qo‘shma Shtatlarida “21st Century Skills” konsepsiyasi doirasida kommunikativ ko‘nikmalar asosiy kompetensiyalar qatoriga kiritilgan. Bu yerdagi yondashuv amaliy mashg‘ulotlar, loyihaviy ta‘lim, jamoaviy ish va real biznes-keyslar ustida ishlashga asoslanadi.

Harvard universitetining “Negotiation Project” dasturi doirasida ishlab chiqilgan muzokaralar olib borish metodikasi butun dunyoda keng tarqalgan. Bu metodika “win-win” tamoyiliga asoslanib, tomonlarning manfaatlarini hisobga olgan holda samarali kelishuvlarga erishish strategiyalarini o‘rgatadi. MIT (Massachusetts Institute of Technology) universitetida “Communication Lab” tashkil etilgan bo‘lib, u yerda talabalar turli kasbiy vaziyatlarda muloqot ko‘nikmalarini amalda sinab ko‘rish imkoniyatiga ega.

Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida Evropa kvalifikatsiyalar tizimi (EQF – European Qualifications Framework) doirasida muloqot kompetensiyasi sakkizta asosiy kompetensiyadan biri sifatida belgilangan. Germaniyada “Duale Ausbildung” (ikki tomonlama ta‘lim) tizimi o‘quv jarayonini real ish muhiti bilan uyg‘unlashtiradi, bu esa talabalarga kasbiy muloqot ko‘nikmalarini bevosita amaliyotda egallash imkonini beradi. Finlandiyada “phenomenon-based learning” yondashuvi qo‘llaniladi, bunda talabalar real hayotiy muammolarni hal qilish jarayonida muloqot ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Yaponiyada “Ho-Ren-So” (Hokoku-Renraku-Sodan) konsepsiyasi keng tarqalgan. Bu sistema hisobot berish, axborot almashish va maslahat so‘rash madaniyatini o‘z ichiga oladi. Yapon kompaniyalarida “nemawashi” an‘anasi mavjud bo‘lib, bu rasmiy yig‘ilishdan oldin norasmiy muloqot orqali konsensusga erishish jarayonini bildiradi. Singapurda “SkillsFuture” milliy dasturi doirasida barcha yoshdagi fuqarolar uchun muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish kurslari tashkil etilgan.

Xitoyda “guanxi” tushunchasi kasbiy munosabatlar tizimining asosini tashkil etadi. Bu yerdagi yondashuv uzoq muddatli, ishonchga asoslangan professional aloqalarni o‘rnatishga yo‘naltirilgan. Janubiy Koreyada “nunchi” konsepsiyasi – ijtimoiy kontekstni tez anglash va muloqotni shunga mos ravishda sozlash qobiliyati alohida ahamiyatga ega. Hindistonda “jugaad” yondashuvi – cheklangan resurslar sharoitida ijodiy muammolarni hal qilish va samarali muloqot o‘rnatish ko‘nikmalari rivojlantiriladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘zbekistonda kasbiy muloqot kompetensiyalarini shakllantirish bo‘yicha o‘ziga xos yondashuvlar shakllanmoqda. Mamlakatimizda 2017-yildan boshlab amalga oshirilayotgan ta‘lim tizimi islohotlari doirasida kompetensiyaviy yondashuvga alohida e‘tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli² Farmoni kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishning huquqiy asosini yaratdi.

Respublikamiz oliy o‘quv yurtlarida “Kasbiy muloqot” fani joriy etilgan bo‘lib, bu fan doirasida talabalar og‘zaki va yozma muloqot ko‘nikmalarini, prezentatsiya mahoratini, muzokaralar olib borish texnikasini o‘rganmoqda. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘zbekiston Milliy universiteti, Toshkent davlat yuridik universiteti kabi yetakchi oliy o‘quv yurtlarida maxsus treninglar, master-klasslar va amaliy seminarlar tashkil etilmoqda.

O‘zbekistonda milliy mentalitet va madaniy an‘analarni hisobga olgan holda kasbiy muloqot kompetensiyalarini rivojlantirish yondashuvlari ishlab chiqilmoqda. “Ustoz-shogird” an‘anasi zamonaviy mentoring dasturlariga asos bo‘lmoqda. “Hashar” tamoyili jamoaviy loyihalar va korporativ madaniyatda o‘z aksini topmoqda. O‘zbek xalqining mehmondo‘stlik, hurmat-ehtiram, katta-kichiklik odobi kabi qadriyatlari kasbiy muloqot madaniyatining asosini tashkil etmoqda.

“El-yurt umidi” jamg‘armasi, “Yoshlar ishlari agentligi” kabi tashkilotlar tomonidan yoshlarning kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantirish bo‘yicha turli dasturlar amalga oshirilmoqda. “Startup initiatives” dasturi doirasida tadbirkorlik ko‘nikmalari bilan bir qatorda networking, pitching, biznes-muzokaralar olib borish ko‘nikmalari ham o‘rgatilmoqda. IT Park rezidentlari uchun “Soft Skills Academy” tashkil etilgan bo‘lib, u yerda texnik mutaxassislar uchun muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish kurslari o‘tkaziladi.

Jahon va O‘zbekiston tajribasini qiyosiy tahlil qilish bir qator umumiylik va farqlarni ko‘rsatadi. Umumiy jihatlar orasida kompetensiyaviy yondashuvga e‘tibor, amaliy yo‘naltirilganlik, zamonaviy texnologiyalardan

2 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmoni: <https://lex.uz/ru/docs/-4545884>



foydalanish, madaniyatlararo muloqot ko'nikmalariga urg'u berish kabilarni sanash mumkin. Farqli jihatlar esa asosan madaniy kontekst, ta'lim an'analar, iqtisodiy rivojlanish darajasi va mehnat bozori talablari bilan bog'liq.

G'arb mamlakatlarida individualizm, to'g'ridan-to'g'ri muloqot, raqobatbardoshlik tamoyillari ustunlik qilsa, Sharq mamlakatlarida, jumladan O'zbekistonda kollektivizm, ierarxiyaga hurmat, konsensusga intilish kabi qadriyatlar muhim o'rin tutadi. Bu farqlar kasbiy muloqot kompetensiyalarini shakllantirish metodologiyasiga ham ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekiston uchun jahon tajribasidan foydalanishda selektiv yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Bir tomondan, global standartlar va eng yaxshi amaliyotlarni o'rganish hamda tatbiq etish, ikkinchi tomondan, milliy o'ziga xosliklarni saqlash va rivojlantirish zarur. Masalan, Amerika modeli asosidagi networking va self-promotion ko'nikmalarini o'zbek an'anaviy kamtarlik va jamoaviylik qadriyatlari bilan uyg'unlashtirish mumkin.

Pandemiya davri va undan keyingi davr kasbiy muloqot kompetensiyalariga yangi talablar qo'ydi. Virtual muloqot, gibrid ish formati, raqamli nomadizm kabi tendensiyalar yangi ko'nikmalar to'plamini shakllantirish zarurligini ko'rsatdi. Zoom, Microsoft Teams, Slack kabi platformalarda samarali muloqot o'rnatish, virtual prezentatsiyalar o'tkazish, onlayn muzokaralar olib borish zamonaviy mutaxassisning muhim kompetensiyalariga aylandi.

O'zbekistonda "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasi doirasida raqamli kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etmoqda. "One Million Uzbek Coders" dasturi ishtirokchilari nafaqat dasturlashni, balki xalqaro jamoalarda ishlash, ingliz tilida texnik muloqot o'rnatish ko'nikmalarini ham egallamoqda. "Digital Generation Uzbekistan" tashabbusi yoshlarning raqamli savodxonligi bilan birga raqamli muloqot madaniyatini ham rivojlantirishga qaratilgan.

Sun'iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi kasbiy muloqotga yangi imkoniyatlar yaratmoqda. ChatGPT, Claude kabi til modellari bilan samarali ishlash, prompt engineering, AI-vositali muloqot ko'nikmalari kelajak mutaxassislarning muhim kompetensiyalariga aylanmoqda. O'zbekistonda bu yo'nalishda dastlabki qadamlar qo'yilmoqda, ba'zi universitetlarda "AI in Professional Communication" kurslari joriy etilmoqda.

O'zbekistonda kasbiy muloqot kompetensiyalarini shakllantirish tizimini takomillashtirish uchun quyidagi tavsiyalarni berish mumkin:

Birinchidan, barcha ta'lim muassasalarida kasbiy muloqot fanini majburiy komponent sifatida joriy etish, o'quv dasturlarini xalqaro standartlar asosida yangilash zarur.

Ikkinchidan, o'qituvchilar va trenerlarni tayyorlash tizimini rivojlantirish, xalqaro sertifikatlash dasturlarini kengaytirish lozim.

Uchinchidan, korxonalar bilan hamkorlikda real biznes-muhitda amaliyot o'tash imkoniyatlarini yaratish muhim.

Shuningdek, milliy onlayn platforma yaratish, bu yerda turli kasb egalari uchun muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish kurslari, webinarlar, interaktiv trenajyorlar joylashtirilishi maqsadga muvofiq. Xalqaro hamkorlik dasturlarini kengaytirish, student almashinuvi, qo'shma loyihalar orqali madaniyatlararo muloqot tajribasini oshirish zarur. Kasbiy muloqot kompetensiyalarini shakllantirish zamonaviy ta'lim tizimi va kadrlar tayyorlashning ustuvor vazifalaridan biridir. Jahon tajribasi bu sohada turli yondashuvlar va modellar mavjudligini ko'rsatadi. O'zbekiston o'zining milliy xususiyatlarini hisobga olgan holda, global tendensiyalar va eng yaxshi xalqaro amaliyotlarni integratsiya qilish yo'lida harakat qilmoqda. Muvaffaqiyatli kasbiy muloqot kompetensiyalarini shakllantirish tizimini yaratish uchun davlat, ta'lim muassasalari, biznes va fuqarolik jamiyatining birgalikdagi sa'y-harakatlari zarur. Faqat kompleks yondashuv va barcha manfaatdor tomonlarning faol ishtiroki orqaligina global mehnat bozorida raqobatbardosh, yuqori kommunikativ ko'nikmalarga ega mutaxassislarni tayyorlash mumkin bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Абдуллаева, М. Н. Касбий компетенцияларни шакллантиришнинг педагогик асослари / М. Н. Абдуллаева. – Тошкент: Фан, 2021. – 248 б.
2. Мирзиёев, Ш. М. Янги Ўзбекистон стратегияси / Ш. М. Мирзиёев. – Тошкент: Ўзбекистон, 2021. – 464 б.
3. Расулов, Т. С. Корпоратив мулоқот маданияти / Т. С. Расулов, Д. А. Каримова // Иқтисодий ва инновацион технологиялар. – 2022. – № 4. – Б. 112–125.
4. Голман, Д. Эмоциональный интеллект в бизнесе / Д. Голман; пер. с англ. А. П. Исаева. – М.: Манн, Иванов и Фербер, 2019. – 512 с.
5. Fisher, R. Getting to Yes: Negotiating Agreement Without Giving In / R. Fisher, W. Ury, B. Patton. – 3rd ed. – New York: Penguin Books, 2018. – 240 p.
6. Hofstede, G. Cultures and Organizations: Software of the Mind / G. Hofstede, G. J. Hofstede, M. Minkov. – 3rd ed. – New York: McGraw-Hill, 2020. – 576 p.
7. World Economic Forum. The Future of Jobs Report 2020 [Электрон ресурс] / World Economic Forum. – Geneva: WEF, 2020. – URL: <https://www.weforum.org/reports/the-future-of-jobs-report-2020> (мурожаат санаси: 15.01.2024).

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.